

ONA TILI VA MANAVIYAT.

Inomova Nilufar, Abulqosimova Rano

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili – millatning ruhi ekanligi, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgani va ona tili bo‘lmish o‘zbek tilining tarixi, rivojlanish jarayonlari va uni o‘qitishning afzalliklari yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: ona tili, til, dastur, mustaqil davlat, turkum, adabiy til, og’zaki ijod, qadimgi xalq, o‘zbekcha so’zlar, alifbo, til bayrami.

Ona tili – millatning ruhidir. Til – davlat timsoli, mulki. Tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demak. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan. Shu tariqa o‘zbek tili mustaqil davlatimizning Bayrog‘i, Gerbi, Madhiyasi qatorida turadigan, qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramziga aylandi[1].

O‘zbek tili (O‘zbekcha yoki Turkiy O‘zbekcha) — Oltoy tillari oilasining turkiy tillar turkumiga kiruvchi tildir. Ushbu til O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq davlat tili hisoblanadi. Davlat tili haqidagi Qonun 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan. 1995-yil 21-dekabrda takomillashtirildi.

O‘zbek adabiy tili tarixi quyidagi davrlarni o‘z ichiga oladi:

Miloddan oldingi davrlardan to X asrlargacha bo‘lgan davr. Bu davrdagi til fanda qadimgi turkiy til deb yuritiladi. Qadimgi xalq og’zaki ijodi namunalari, O’rxun-Enasoy yodgorliklari (VI-VII asrlar) shu tilda yaratilgan.

XI-XIV asrlarda amalda bo‘lgan til eski turkiy til deb ataladi. Mahmud Qoshg’ariyning «Devonu-lug’atit-turk» («Turk tillari devoni»), Yusuf Xos Hojibning «Qutadg’u bilig» («Saodatga yo’llovchi bilim»), Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» («Haqiqatlar armug’oni»), Xorazmiyning «Muhabbatnoma», Rabg’uziyning «Qissai Rabg’uziy» asarlari shu tilda yaratilgan.

XV asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha qo‘llangan til eski o‘zbek adabiy tili deb nomlangan. Atoyi, Sakkokiy, Sayfi Saroyi, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Turdi, Maximur, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy va boshqa ko’plab ijodkorlarning asarlari shu tilda yaratilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan hozirgi davrgacha ishlatib kelayotgan til hozirgi o‘zbek adabiy tili deb ataladi. «Turkiston viloyati gazeti» nashr qilina boshlagan vaqtidan (1870-yildan) e’tiboran to hozirgi kungacha yaratilgan barcha asarlar hozirgi o‘zbek adabiy tilining namunalari hisoblanadi.

O'zbek tili XI asrdan boshlab mustaqil til sifatida shakllana boshladи va XIII asrda eski o'zbek adabiy tili shakllanib bo'ldi. Eski o'zbek tilining rivoji buyuk Alisher Navoiyning nomi bilan bog'liqdir. U eski o'zbek tilining keng imkoniyatlaridan foydalangan holda ajoyib asarlar yaratibgina qolmasdan, bu tilni ilmiy jihatdan chuqur tadqiq qiluvchi „Muhokamat-ul-lug'atayn“ nomli yirik ilmiy asar ham yozdi va unda o'zbek tilining boshqa tillardan hech kam emasligini ishonarli misollar bilan isbotlab berdi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining lug'at tarkibi asosan, 5 manba negizida tashkil topgan :

1. umum turkiy so'zlar.
2. o'zbekcha so'zlar.
3. fors-tojikcha so'zlar.
4. arabcha so'zlar.
5. ruscha so'zlar.

Umumturkiy so'zlar ko'pchilik turkiy tillarda hozir ham ishlatiladigan barcha turkiy tillar uchun umumiyoq bo'lgan ko'pgina so'zlar borki ular azaldan turkiy qabilalar tilida mavjud edi, ular hozir ham ishlatiladi. Masalan: kishi, ot, qo'l, oyoq...

O'zbekcha so'zlar o'zbek tili sharoitida, o'zbek tili yoki boshqa til elementlari yordamida ko'pgina so'zlar yaratilgan. Masalan: ishxona, so'roq, ulfatchilik, bog'dorchilik...

Fors tillaridan o'zlashgan so'zlar hozirgi o'zbek tilida tubandagi kabi so'zlar bor. Ular dasturxon, chiroq, parda, marvarid, marjon...

Arab tilidan o'zlashgan so'zlar. Arab so'zlari o'zbek tiliga VII-VIII asrlardan boshlab kiradi. Bu hol arablarning shu davrda O'rta Osiyonni jabt etishlari bilan bog'liq. Hozirgi o'zbek tilida arab tilidan kirgan quyidagi kabi so'zlar mavjud: kasb, mehnat, hayvon, ittifoq, millat... Arab so'zlari birinchidan kitob, madrasa, din, davlat tuzimi orqali kirgan. Ikkinchidan Eroni tillar orqali kirgan. Uni masalan arab so'zlariga tojikcha morfemalar qo'shib yasalgan. Masalan: darxaqiqat, mansabdor, mulkdor, baquvvat... kabi so'zlardan bilsa bo'ladi.

Rus tilidan o'zlashgan so'zlar. O'zbek milliy tilining shakllanishi va rivojlanishida rus millatining tili g'oyat katta rol o'ynaydi. Rus xalqi bilan o'zbek xalqi orasidagi yaqin aloqa, ayniqsa ruslarning iqtisodiy va madaniy ta'siri rus tilidan ruscha va yevropa tillariga oid so'zlarning o'zbek tiliga kirishiga sabab bo'lgan. Rus tilidan o'zlashgan so'zlar: fabrika, gimnaziya, doktor, shapka...

Tarixda o'zbek tilini yozish uchun ko'p alifbolardan qo'llanilgan. 1928-yilgacha savodli kishilar o'zbek tilini arab yozuvida yozishgan. 1928-yildan 1940-yilgacha o'zbek tili lotin yozuvida yozilgan. 1940-yil Iosif Stalining buyrug'i bilan majburan kirill yozuviga o'tilgan. 1992-yilgacha o'zbek tili shu yozuvda yozilgan. 1993-yil O'zbekiston rasman lotin yozuvini yana qaytadan kirdizdi. Hozirda O'zbekistonda ta'lim joylarida lotin yozuvidan qo'llaniladi. Shunday bo'lsa ham yoshi kattalar va O'zbekiston tashqarisida yashaydigan o'zbeklar hali ham kirill yozuvidan qo'llanishadi.

Alifbodagi o'zaro farqlar (Alifbodagi o'zaro farqlar)				
Arabcha (Arabcha)	Lotincha (Lotincha)	Kirilcha (Kirilcha)	Lotincha (Lotincha)	Xalqaro Fonetik Alifbosи (Xalqaro Fonetik Alifbosи)
—1929	1936—1940	1940—1992	1992—	
ا	Ə ə	Ә ә	Ə ə	[ə], [æ]
ب	B b	Б б	B b	[b]
د	D d	Д д	D d	[d]
ئ	E e	Ә ә	E e	[e]
ف	F f	Ф ф	F f	[f]
گ	G g	Ғ ғ	G g	[g]
هـ	H h	Ҳ ҳ	H h	[h]
ىـ	I i	Ӣ ӣ	I i	[i]
ڦـ	ڙ ڙ	ڇ ڇ	J j	[ʒ]
ڻـ	K k	Ӯ Ӯ	K k	[k]
ڻـ	L l	Ӆ Ӷ	L l	[l]
ڻـ	M m	Ӎ Ӎ	M m	[m]
ڻـ	N n	Ң Ң	N n	[n]
ڻـ	A a	Ӑ Ӑ	O o	[o]
ڻـ	P p	Ӗ Ӗ	P p	[p]
ڻـ	Q q	Ӱ Ӱ	Q q	[q]
ڻـ	R r	ڒ ڒ	R r	[r]
ڻـ	S s	Ҫ Ҫ	S s	[s]
ڻـ	T t	Ҭ Ҭ	T t	[t]
ڻـ	U u	Ӯ Ӯ	U u	[u]
ڻـ	V v	Ѷ Ѷ	V v	[v], [w]
ڻـ	X x	Ӯ Ӯ	X x	[x]
ڻـ	J j	Ӣ Ӣ	Y y	[y]
ڻـ	Z z	Ӡ Ӡ	Z z	[z]
ڻـ	O o	Ӯ Ӯ	O' o'	[o']
ڻـ	Q q	Ӱ Ӱ	Q' q'	[q']
ڻـ	S s	Ӯ Ӯ	Sh sh	[ʃ]
ڻـ	C c	Ч ч	Ch ch	[tʃ]
ڻـ	—	ڦ ڦ	—	[ɿ]

Arab yozuvi: – O‘zbekistonda 1929-yilgacha arab yozuvidan foydalanilgan. 1920-yillarning o‘rtalaridan O‘zbekistonda arab yozuviga keng hujum boshlandi. Arab yozuvi qoloqligimizning, savodsizligimizning, dindorligimizning sababchisi deb e’lon qilindi. 1929-1930 o‘quv yildan O‘zbekiston lotin yozuviga o‘tdi va biz o‘zbek xalqining asrlar davomida yaratilib kelingan hamda chop etilgan ilmiy, badiiy va falsafiy adabiyotdan uzilib qoldik.

Yanalif – 1929-yildan boshlab arab yozuvidan yangi lotin vozuviga (yanalif) o‘tilgan. U 1940-yilgacha ishlatilgan.

A a	B b	C c	Ҫ ҫ	D d	E e	Ө ө	F f
G g	Ƣ ƣ	H h	I i	J j	K k	L l	M m
N n	Ң ң	O o	Ө ө	P p	Q q	R r	S s
Ҫ ҫ	T t	U u	V v	X x	Y y	Z z	Z z

Kirill yozuvi – 1940-yilda O‘zbekistonda kirill yozuviga o‘tildi. Buning natijasida 1929-1940-yillar oralig‘ida chop etilgan ilmiy, badiiy, pedagogik, o‘quv adabiyotlardan uzilib qoldik.

А а	Б б	В в	Г г	Д д	Е е	Ё ё	Ж ж
З з	И и	Й й	К к	Л л	М м	Н н	О о
П п	Р р	С с	Т т	У у	Ф ф	Х х	Ц ц
Ч ч	Ш ш	Ҷ Ѷ	Ҹ Ѹ	Ҵ Ѵ	Ҷ Ѵ	ҹ ѹ	Һ ѻ
Қ қ	Ғ ғ	Ҳ ҳ					

1940-yildan 1991-yilgacha o‘rtalik hisob bilan o‘zbek tilida 50 ming nomda 50 million nusxada kitoblar chop etilganini (bunga shu yillari nashr etilgan jurnal, gazetalar kirmaydi) hisobga olsak, biz yana lotin yozuviga o‘tishda qanchadan-qancha adabiyotdan yiroqlashishimiz mumkinligi ayon bo‘ladi.

Lotin yozuviga ko‘chish – lekin, dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari (ularni sanab o‘tirishning hojati yo‘q) lotin yozuvidan foydalanadilar. Shuning uchun ham hozirgi eng zamonaviy texnika, tabiiy fanlar yoki ijtimoiy tadqiqotlar haqidagi adabiyotlar shu yozuv asosida yoritiladi. BMT, YuNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlarning xabar qilishlaricha, yangi texnika, texnologiya va fanga tegishli adabiyotlarning 80 foizi lotin yozuvida chop etilar ekan.

A a	B b	D d	E e	F f	G g	H h	I i
J j	K k	L l	M m	N n	O o	P p	Q q
R r	S s	T t	U u	V v	X x	Y y	Z z
O‘ o‘	G‘ g‘	Sh sh	Ch ch	ng	,		

Demak, O‘zbekistonni dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatoriga qo‘shilishi uchun lotin yozuviga o‘tish maqsadga muvofiqdir bo‘lganligini yna bir-bor ta’kidlayman.

21-oktabr O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun. Til insonlarning o‘zaro aloqa vositasi bo‘lib, yaratuvchining insonga bergan bebafo ne’matidir. Millatlarni millatlardan ajratib turuvchi asosiy belgilardan biri ham tildir. Dunyoda har bir xalqning o‘z tili uning bebafo boyligi, iftixori, najoti hisoblanadi. Hikmatli so‘zlar, she’ru dostonlar, qo’shiqlar avvalo biror bir millatning ona tilida dunyoga keladi. Millat bor ekan, uning tili ham yashaydi, tili yashar ekan u millat boshqa millatlar orasida o‘z nufuzi, obro’siga ega bo‘ladi. Har bir xalqqa o‘z tili aziz va ardoqli. Sho’rolar davrida rus tili Ittifoq tili sifatida rivojlantirildi. U jahon tillari darajasiga ko’tarildi. Ayniqsa, ko‘p ming asrlik tarixga ega bo‘lgan turkiy xalqlar ham o‘z ona tillari dunyodagi hech bir xalqning tilidan kam emasligini yoqlab chiqdilar. Bu yo‘ldagi sun‘iy to’siqlarni pisand etmadilar. Mustaqillik arafasida

oilaviy va bozor tili darajasiga tushib qolgan o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish haqidagi taklif va kurashlar samarasiz ketmadi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Davlat hujjatlari, davriy nashrlar, darsliklar ona tilimizda yozila boshlandi. Bu xalqimiz ruhini ko'tardi. Sho'rolar davrida ham o'zbek tilini tiklashga, uni Davlat tiliga aylantirishga intilish kuchli bo'lган. Xususan, ona tiliga bag'ishlangan turli tadbirlar o'tkazishga harakat qilingan bunday tadbirlar ayniqsa, mustaqillik arafasida tez-tez o'tkazila boshlangan. 1988 yil matbuotda yangi bayram - «Til bayrami» haqida ma'lumotlar paydo bo'la boshlagan. Bunday bayram Rossiya Federasiysi, Ukraina, Boltiq bo'yi va Kavkaz orti respublikalarida va mamlakatimiz poytaxtida ham o'tkazilgani haqida gazetalarda maqolalar bosilgan. Bu bayramlarning asosiy maqsadi - ona tilini e'zozlash, ona tili bilan birga boshqa tillarni ham chuqurroq o'rganishga da'vat qilish bo'lган. O'zbekistonda ilk bor «Til bayrami» 1988 yil 3 dekabrda Toshkentning talabalar shaharchasida ToshDUNing o'zbek filologiyasi, tarix fakul'teti, shuningdek, politexnika instituti va boshqa o'quv yurti talabalari tomonidan o'tkazilgan. Talabalarning «O'zbek tili bayrami» deb nomlangan bu tadbiri ko'proq miting-namoyishga o'xshab ketardi. Davraga notiqlar chiqib, ular ona tuproq, ona yurt, xalq, til haqida so'zlab, she'rlar o'qib, ularni asrashga da'vat qilishdi. Yig'ilganlar «Til - xalq boyligi», «O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilsin!», «Tilga hurmat - elga hurmat» kabi rang-barang shiorlarni ko'tarib olishgan edi. «Til bayrami» - da xonandalar xalqni, millatni, tilni ulug'lovchi qo'shiqlar kuylashdi. Yoshlarga alohida zavq-shavq baxsh etuvchi kichik kulguli sahna asarlari ijro etildi». 21-oktabrni o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun sifatida nishonlab kelmoqdamiz. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1996-yil 10-sentabrdagi 311-qaroriga binoan «Davlat tili haqida»gi qonun qabul qilingan kundan e'tiboran har yili «O'zbek tili kuni»ni o'tkazish, uning 0.4. bandida 21 oktyabr barcha o'quv yurtlarida har yili - o'zbek tili kuni sifatida nishonlanishi ta'kidlandi. Shular asosida 21-oktabr - milliy tilimiz bayrami sifatida rasmiy tarzda nishonlanadi. Har bir yildagi bayram turli shiorlar ostida o'tkaziladi. «Ona tilim - jonu dilim», «Tilga e'tibor - elga e'tibor», «Til - millat ko'zgusi» shular jumlasidandir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasida til bayramini o'tkazish bo'yicha yaxshi tajriba to'plangan. Til bayramining mazmunli va qiziqarli o'tishi har bir o'quv yurti muallimlarining aql-zakovati, o'z kasbini qanchalik chuqur egallaganligiga bog'liq. Til bayramiga taniqli yozuvchi, shoirlar, tilshunos va adabiyotshunos olimlar taklif etiladi. Ular yoshlarga til bilish barcha muvaffaqiyatlarning garovi ekanligini, har bir inson avvalo o'z ona tilini, qolaversa boshqa tillarni sevib o'rganishlari zarurligini uqtirib o'tadi. Til bayramlarida til haqidagi hikmatli so'zlar, she'rlar, qo'shiqlar yangaydi. Shu kuni radio va televiedeniye orqali til bayramiga doir qiziqarli chiqishlar uyushtiriladi. Til bayrami insonni ona tiliga va o'z xalqiga bo'lган mehr-muhabbatini jo'sh urdiruvchi betakror bayramdir. Til bayrami shuningdek xalqlar o'rtasida o'zaro totuvlik va do'stlik rishtalarini mustahkamlovchi muhim omildir. «Uchquduq ko'p millatli shahar, - deb yozadi «Xalq so'zi» gazetasi muxbir A. Pirmatov, - bu yerda muomala madaniyatida davlat tili ustuvorligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Yaqinda shahar madaniyat saroyida «O'zbek tilini

o'rganish orqali o'quvchilarga konstitutsiyaviy bilim berish» mavzusida o'tkazilgan tadbir ham buni yana bir bor isbotladi. Tadbirda o'ttizdan ziyod millat va elat farzandlari huquqiy qomusimizni qanchalik bilishlarini o'zbek tilida ifodalashdi. Jonli tildagi savol- javoblar, o'tkir zehnlilar bellashuvi, huquqshunoslar va til mutaxassislari tomonidan yuqori baholandi. Bu tadbir shaharda til bayramiga aylanib ketdi. Davlat tili o'z nomi bilan davlatning ramziy belgisiga aylanishiga hamma guvoh bo'ldi» Toshkent Davlat yuridik institutida «Davlat tili to'g'risida»gi qonunning 12 yilligiga bag'ishlangan «Yuksak huquqiy madaniyat - komillik belgisi» mavzuida tadbir bo'lib o'tdi. Unda ona tilimizning huquqiy bilimlarni ifodalashdagi imkoniyatlari naqadar kengligi, go'zal va boyligi haqida so'z boradi. O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov, adabiyotshunos A. Rasulov, shoir va tarjimon Yo'ldosh Parda bo'lg'usi huquqshunoslarga tilimizni puxta o'rganish fazilatlari haqida so'zlab berdilar. Xullas, til bayramining imkoniyatlari bitmas-tuganmasdir.

Bundan 27 yil muqaddam o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan edi. Bu o'z davrida tom ma'noda olamshumul voqeа bo'lgan edi. Chunki, Beruniy, Ibn Sino, Al Xorazmiy, Al Farg'oniy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo singari buyuk siymolarni yetishtirgan xalq tili yo'qolish arafasiga kelib qolgan edi. Mustaqillikka ilk qadamlar tashlanayotgan davrdayoq prezidentimiz tomonidan o'zbek tiliga davlat maqomi berish masalasi kun tartibiga qo'yilib, bu ish amalga oshirilgan edi. Ona tilimiz – o'zbek tiliga 1989 yil 21 oktabrda davlat tili maqomi berildi. Bu mamlakatimiz, yurtdoshlarimiz hayotidagi unutilmas, tarixiy voqeaga aylandi. Agar o'shanda til to'g'risida qonun qabul qilinmaganda edi, o'zbek tili ham tarix saxifalaridan joy olgan bo'larmidi?!

Shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning milliy mustaqillikka erishish yo'lidagi muhim qadamlaridan biri bo'lgan edi. Istiqlol yillarida mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. O'zbek tilining xalqaro miqyosda obro'si oshdi. "Davlat tili haqida"gi qonun ona tilimizning bor go'zalligi va jozibasini to'la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Olimlar va mutaxassislar tomonidan ilm-fan va turli sohalarga oid ensiklopediya va lug'atlar, darslik va o'quv qo'llanmalari chop etildi. Mumtoz adabiyotimiz namunalari, sakson mingdan ziyod so'z va so'z birikmasini, fan, texnika, sanoat, madaniyat va boshqa sohalarga oid atamalarni, shevalarda qo'llaniladigan so'zlarni o'z ichiga olgan besh jiddlik "O'zbek tilining izohli lug'ati" bu borada amalga oshirilgan ishlarning eng muhimlaridandir.

Til – millat qiyofasining bir bo'lagi. Dunyodagi barcha xalqlar o'zining milliy rasmiy tiliga ega deb aytolmaymiz. Chunki bu xalqning milliy mustaqilligi bilan bog'liq. Mutaxassislarning so'zlariga qaraganda, bugungi kunda har ikki xhaftada bitta til yo'qolib bormoqda. Bu o'z navbatida o'sha tilda so'zlashuvchi

xalqlarning yo‘qolishini anglatadi. YuNeSKO vakillarining so‘zlariga qaraganda, qachonlardir odamlar so‘zlashadigan tillarning soni 7 mingdan 8 mingtagacha yetgan bo‘lsa, bugungi kunda sayyoramizda 6 mingta til mavjud bo‘lib, ularning 90 foizi yo‘qolib ketish arafasida turibdi. Bu asosan sivilizatsiya tufayli madaniyatidan ayrilayotgan kam sonli millatlarning tillaridir. Bu tillarda so‘zlovchi aholining ayrimlari yozuvga ega bo‘lsa, ayrimlari bundan bebahradir. Masalan, Afrika tillarida so‘zlashuvchi aholining 80 foizi xamon o‘z yozuvlariga ega emas. Minglab tillardan ta’lim tizimida foydalanishning imkoniyati yo‘q. Internetdan foydalana olmaydigan tillar haqida-ku aytmasa ham bo‘ladi. Chunki yangi texnologiyalarning rivojlanishi tufayli ayrim xalqlar o‘z tillaridan ko‘ra zamonaviy tillardan foydalanishga majbur bo‘lmoqda. Bugun Internet tilining 81 foizi inglez tiliga to‘g‘ri keladi. To‘g‘ri, avvallari ham tillar paydo bo‘lgan, muammolada bo‘lib, ma'lum vaqtadan so‘ng yo‘q bo‘lib ketgan. Lekin hozirgidek tillarning jadallik bilan yo‘qolishi tarixda kuzatilmagan. Yo‘qolib ketish havfida bo‘lgan tillarning saqlab qolish yo‘lida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarning asosiy maqsadi ham madaniyatlar va tillar xilma-xilligini ta'minlashdan iboratdir. Chunki aynan til tufayli xalq va elatlarning madaniyati, urf-odatlari saqlanib qoladi, sayyoramizda yashayotgan xalqlarning o‘tmishi va madaniyati hurmat qilinadi. Tilshunoslar yo‘qolib ketish arafasida turgan tillarni saqlab qolishning imkoniyatlari hozircha qo‘ldan boy berilmaganini aytishadi. Tillarni saqlab qolish uchun esa, BMT ekspertlarining fikricha, bu tillardan ta’lim tizimida keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish kerak.

Til – millatning ma'naviy boyligidir. Til nafaqat muammola vositasi – balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixidir. Turli xalqlarning tillariga xurmat esa o‘z navbatida o‘zaro tushunishni, muloqotlarga imkoniyat yaratadi. Tillarni saqlanib qolishi uchun esa bu tillarni qo‘llab-quvvatlash zarurdir. Aynan til tufayli insoniyat u yoki bu xalqqa mansubligidan faxrlanib yashaydi. Barcha tillarni tan olish va xurmat qilish tinchlikning birdan bir kafolatidir. Shu sababli ham xar bir xalq o‘z tili saqlanib qolishi uchun harakat qiladi.

Lingvist olimlarning fikricha, yana 25 yildan so‘ng xozir muamolada bo‘lgan tillarning o‘ntasidan bittasi saqlanib qolar ekan.

Bugungi kunda dunyoda 6809 ta til mavjud bo‘lib, ularning teng yarmi sakkizta davlat – Meksika, Indoneziya, Kamerun, Braziliya, Hindiston, Xitoy, AQSh va Rossiya xissasiga to‘g‘ri keladi. Eng ko‘p tilli mamlakat sifatida Hindiston tan olinadi. Bu mamlakatda axoli 845 til va laxjada so‘zlashadi. Ikkinci o‘rinda esa 600ta til va shevada so‘zlashuvchi Papua — Yangi Gvineya turadi. Sayyoramizda eng ko‘p aholi so‘zlashadigan til sifatida xitoy, inglez va ispan tillari tan olingan. Birinchi o‘nlikka hindi, bengal, arab, portugal, nemets, rus va yapon tillari ham kiritilgan. Jaxon tillarining atigi 4 foizi Yevropa qitasiga to‘g‘ri kelsada, eng ko‘p so‘zlashuvchi tillarning teng yarmi “ko‘hna qita”da ekani ma'lum

bo‘ldi. 341 million kishi ingliz tilini ona tili sifatida tan oladi, biroq yana 350 million kishi bu tilni ikkinchi ona tili sifatida ko‘rishini ma'lum qilgan. Taxlilchilar xitoy va ingliz tillari foydalanish bo‘yicha o‘z mavqeini oshirib borayotganini aytishadi. Vaziyatni o‘rganayotgan kuzatuvchilarning fikricha, foydalanuvchilar soni bo‘yicha ayni damda ingliz tili yetakchilik qilayotgan bo‘lsa, XXI asr o‘rtalariga borib, xitoy tili asosiy til bo‘lib olishi mumkin.

Mavjud tillarining 90% ning har biridan 100.000 aholi foydalanadi. Mana shuning o‘ziyoq bu tillarning kelajagi qorong‘uligidan dalolat beradi. Bugungi kunda 357 tilda atigi 50 nafar kishi so‘zlashar ekan. 46 tildan esa atigi bir kishining foydalanishi aytildi. Ularning o‘limi bilan bu tillar ham yo‘qoladi. Olimlarning fikricha, til yashab qolishi uchun undan kamida bir millon kishi so‘zlashishi kerak ekan. Biroq bunday tillar dunyoda atigi 250 tadir. O‘zbek tili ham mana shu 250taning ichida ekani quvonarli, albatta.

YuNeSKO tomonidan nashr qilinadigan «Yo‘qolib ketish xavfi arafasida turgan jahon tillari atlasi»da Yevropadagi 50ta, Tinch okeani mintaqasida esa 200ta til yo‘qolib ketish arafasida ekani ta'kidlanadi. Afrikadagi 1400ta tildan 600tasi kelajakda, 250tasi esa yaqin orada butunlay yo‘qolishi xaqida bong urilmoqda.

AQSh hududlariga yevrropaliklar qadam qo‘yanlarida bu mintaqada minglab tillar mavjud edi. Ayni damda shimoliy Amerika hindularning kamida 150ta tili saqlanib qolgan. Leyptsig universiteti xodimi Baltazar Bikelyaning so‘zlariga qaraganda, Kavkazda atigi 3-4 kishi so‘zlashuvchi tillar bor.

YuNeSKO xomiyligida Leyptsigda bo‘lib o‘tgan lingvistlarning xalqaro anjumanida kam sonli xalqlarning tillari yo‘qolib ketishiga globalizatsiya aybdor ekani aytildi. Biroq ayrim taxlilchilar, tillarning yo‘qolishiga globalizatsiyadan tashqari ayrim xukumatlar olib borayotgan siyosat xam aybdor ekanini eslatib o‘tishdi. Bu kabi vaziyat asosan Afrika mamlakatlarida uchramoqda.

Olimlar insoniyat tarixida 9000 mingdan ortiq til yo‘q bo‘lib ketganini aytishadi. Nafaqat bosib olingan xududlardagi xalqlarning tillari, balki fotihlarning tillari xam yo‘qolib ketgani tarixdan ma'lum. Bu borada qadimgi yunon, oromiy, lotin, sanskrit, vediy, assuriy, qadimgi fors tillarini misol sifatida keltirish mumkin. YuNeSKO mutaxassislari o‘lib va yo‘qolib borayotgan tillarni qutqarib qolish mumkinligini aytishadi. Misol tariqasida o‘tgan asrning 80 yillarida atigi 8 kishi so‘zlashgan Yaponiyaning Xokkaydo orolidagi ayn tilini keltirish mumkin. Bugungi kunda tiklangan bu tilda bir necha ming kishi gaplashmoqda. Ikki ming yil davomida o‘lik til xisoblanib keligan ivrit tili xam qayta iste'molga kiritildi. Bugungi kunda ivrit tilida 9 million kishi suxbatlashadi.

Qadimda xalqlar o‘z turar joylaridan majburan ko‘chirilganlari bois ular boshqa mintaqalarda so‘zlashuvchi xalqlar bilan qorishib ketib, ularni tillarini o‘zlashtirishga majbur bo‘lgan. Lotin Amerikasidagi ayrim xalqlar esa alkogol va

giyoxvand moddalar iste'moli tufayli yo‘q bo‘lib ketgan. Endilikda esa kichik bir xalq yoshlarining kelajagi porloq sifatida ko‘riladigan ikkinchi xalq tilidan foydalanishga urinayotgani bois tillar yo‘qolmoqda.

Qachonki bolalar o‘z ona tillarida o‘qishni to‘htatar ekan, o‘sha til yo‘qolib ketish arafasiga kelib qoladi. Tillarni saqlab qolish bu o‘sha xalqning madaniyati, urf-odati, rasm-rusumlarining saqlanib qolinishini anglatadi. Chunki, xalq taqdiri til taqdiri bilan bevosita bog‘liq. Til har bir millat madaniyatining o‘zagidir. Shu sababli ham tilning saqlanishi xalq taraqqiyoti va kelajagini belgilaydi. Til xalqni birlashtiradi, tarbiyalaydi, o‘qitadi, urf-odat, ananalarini saqlaydi. Shunday ekan, ona tilimizning xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini yuksaltirishda, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo‘sishda har birimiz tilimizga chuqur hurmat bilan yondashimiz kerak.

Foydalangan adabiyotlar ro’yhati:

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
2. O‘zbek xalq bayramlari. "Sharq". T.2002
3. Xalq so’zi», 2001 yil, 25 oktyabr
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbek_tili
5. <https://alifbo.tech.blog>
6. <http://uza.uz/uz/politics/prezident-shavkat-mirziyoyevning-o-zbek-tiliga-davlat-tili-m-21-10-2019>